

*Nargiza TURSUNOVA,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi magistranti,
Ilmiy rahbar: Sherzod XALILOV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasi dotsenti, PhD*

TURIZM XIZMATLARI SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH VA HUDUDYIY RAQOBATBARDOSHLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI: UZAIRWAYS TAJRIBASI ASOSIDA

***Annotatsiya.** Mazkur tezisdagi UzAirways faoliyati misolida aviatsiya xizmatlari sifati va turizm raqobatbardoshligini oshirish masalalari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, marshrutlar kengayishi, flot yangilanishi va raqamlashtirish turizm rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan. Shu bilan birga, IFRS S1 va IFRS S2 asosidagi barqarorlik hisobotlarining yetishmasligi axborot shaffofligini cheklashi aniqlangan.*

***Kalit so‘zlar:** turizm raqobatbardoshligi, hududiy taraqqiyot, aviatsiya xizmatlari sifati, ESG tamoyillari, barqaror turizm, IFRS S1, IFRS S2.*

***Аннотация.** В данной статье исследованы вопросы повышения качества авиационных услуг и конкурентоспособности туризма на примере деятельности UzAirways. Результаты исследования показали, что расширение маршрутной сети, обновление авиапарка и цифровизация положительно повлияли на развитие туризма. Вместе с тем выявлено, что отсутствие отчетности по устойчивому развитию в соответствии со стандартами IFRS S1 и IFRS S2 ограничивает прозрачность информации.*

***Ключевые слова:** конкурентоспособность туризма, региональное развитие, качество авиационных услуг, принципы ESG, устойчивый туризм, IFRS S1, IFRS S2.*

***Abstract.** This thesis examines the issues of improving aviation service quality and enhancing tourism competitiveness through the example of UzAirways. The findings indicate that the expansion of route networks, fleet modernization, and digitalization have positively influenced tourism development. At the same time, the absence of sustainability reporting based on IFRS S1 and IFRS S2 standards has been identified as a factor limiting information transparency.*

***Keywords:** tourism competitiveness, regional development, aviation service quality, ESG principles, sustainable tourism, IFRS S1, IFRS S2.*

Bugungi kunda xalqaro turizm bozorida mamlakatlarning raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan transport infratuzilmasi, ayniqsa havo transporti rivojiga bog‘liq. UN Tourism ma‘lumotlariga ko‘ra, xalqaro turistik safarlarning 58 foizi aviatsiya orqali amalga oshiriladi. Shu sababli milliy aviakompaniyalar hududiy raqobatbardoshlikning muhim omiliga aylangan.

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar – vizasiz rejimni kengaytirish, turistik hududlarni tashkil etish va infratuzilmani modernizatsiya qilish – samarali havo transport tizimini talab etadi. Shu jihatdan UzAirways faoliyati va uning turizm rivojiga ta‘siri dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlarda aviatsiya va turizm o‘rtasidagi bog‘liqlik keng o‘rganilgan. Graham (2013) yangi aviaqatnovlar turistlar oqimini 30–60 foizga oshirishini ta‘kidlagan bo‘lsa, Dobruszkes va Mondou (2013) aviatsiya liberallasuvi turizm rivojiga ijobiy ta‘sir qilishini asoslagan.

Shuningdek, zamonaviy aviatsiyada ESG tamoyillari va barqaror rivojlanish

masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. ICAOning CORSIA mexanizmi hamda IFRS S1 va IFRS S2 standartlari aviakompaniyalardan ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlarni moliyaviy hisobotlarga integratsiya qilishni talab etadi. Bu esa kompaniyalar faoliyatining shaffofligi va investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda ham barqarorlik hisobotlari va iqlim risklarini baholashga qiziqish ortib bormoqda. Xalilov (2026) IFRS S2 asosida iqlim xavflarini baholash modeli ishlab chiqqan bo'lib, uni aviatsiya va turizm sohalariga ham qo'llash mumkin, chunki bu soha ekologik va iqtisodiy risklarga sezgir hisoblanadi.

Jahon iqtisodiy forumining Turizm va sayohat raqobatbardoshligi indeksi ham havo transporti rivojlangan mamlakatlar yuqori natijalarga erishishini ko'rsatadi. O'zbekiston esa 2019-yilda 97-o'rindan 2023-yilda 72-o'ringa ko'tarilgan. 2018-yildan boshlab UzAirways tarkibiy o'zgarishlar bosqichiga kirib, flotni yangilash, yangi yo'nalishlarni ochish va xizmat sifatini oshirish orqali o'z mavqegini mustahkamladi. Quyidagi jadval bu o'zgarishlarning asosiy ko'rsatkichlarini aks ettiradi.

1-jadval

UzAirways asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2019–2023)¹⁰⁵

Ko'rsatkich	2019	2021	2022	2023
Yo'lovchilar soni (mln)	3,2	1,8	4,1	6,3
Xalqaro marshrutlar (ta)	28	18	35	49
Flot hajmi (samolyot)	26	24	31	38
Punktuallik darajasi (%)	71	68	79	84
Yo'lovchilar mamnuniyati (1-5)	3,4	3,1	3,8	4,1
Turizm ulushi (%)	41	27	48	57

Jadval natijalari COVID-19 ta'sirida 2021-yilda keskin pasayishni, 2022–2023-yillarda esa barqaror tiklanish va o'sishni ko'rsatadi. Xususan, yo'lovchilar mamnuniyati 3,4 dan 4,1 gacha oshgan, turizm yo'lovchilari ulushi esa 41 foizdan 57 foizga yetgan bo'lib, bu UzAirways'ning turizm segmentiga ustuvor e'tibor qaratayotganini tasdiqlaydi (UzAirways, 2023).

ESG ko'rsatkichlari hozirda nafaqat moliyaviy, balki raqobatbardoshlikni belgilovchi muhim omilga aylangan. IATA (2023) ma'lumotiga ko'ra, yo'lovchilarning 73 foizi aviakompaniya tanlashda ekologik mas'uliyatni hisobga oladi. Quyidagi jadvalda UzAirwaysning ESG bo'yicha holati xalqaro standartlar bilan taqqoslangan.

2-jadval tahliliga ko'ra, UzAirways ekologik samaradorlik (yoqilg'i sarfini kamaytirish) va ijtimoiy yo'nalishda (mintaqaviy aloqalarni kengaytirish) ijobiy natijalarga erishgan. Shu bilan birga, boshqaruv shaffofligi va barqarorlik hisobotlarini yuritish borasida xalqaro talablardan ortda qolish holatlari mavjud. Bu holat Xalilov (2026) tadqiqotida O'zbekiston korxonolari uchun ham qayd etilgan

¹⁰⁵ Manba: UzAirways Annual Report 2023; IATA World Air Transport Statistics 2023 asosida muallif tomonidan tuzilgan.

IFRS S1 va IFRS S2 standartlariga to‘liq moslashuv yetishmasligi bilan uyg‘unlikda ko‘rinadi.

2-jadval

UzAirways ESG faoliyatini xalqaro standartlar bilan qiyosiy baholash¹⁰⁶

ESG yo‘nalishi	Mezon	UzAirways holati	Xalqaro standart	Baho
Ekologik (E)	CO ₂ emissiyasi oshkorligi	Qisman	IFRS S2 / GRI 305	O‘rta
Ekologik (E)	Yoqilg‘i samaradorligi	Yaxshi	CORSIA	Yuqori
Ijtimoiy (S)	Mintaqaviy ulanish	Kengaymoqda	UNWTO 2030	Yuqori
Ijtimoiy (S)	Xodimlar tayyorlash	O‘rta	ILO standartlari	O‘rta
Boshqaruv (G)	Hisobot shaffofligi	Cheklangan	IFRS S1 / GRI	Past
Boshqaruv (G)	Raqamlashtirish	Rivojlanmoqda	IATA NDC standart	O‘rta

UzAirways tomonidan yangi ichki yo‘nalishlarning ochilishi ayrim hududlarda turizm infratuzilmasining rivojlanishiga turtki bo‘lmoqda. Xususan, Termiz va Nukus yo‘nalishlarida qatnovlar soni oshgach, ushbu shaharlarga turistlar oqimi mos ravishda 2,1 va 1,8 baravarga ko‘paygan (O‘zbekiston Turizm va sport vazirligi, 2023). Bu holat aviatsiya multiplikativ ta‘siri nazariyasini O‘zbekiston amaliyotida tasdiqlaydi (Button & Taylor, 2000).

Samarqand va Buxoro yo‘nalishlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xalqaro reyslarning yo‘lga qo‘yilishi tranzit yo‘lovchilar yo‘qotilishini kamaytirgan hamda turistlarning o‘rtacha qolish muddatini 1,2 kunga uzaytirgan (UNWTO & UzTourism, 2023). Natijada hududiy iqtisodiyotda mehmonxona, umumiy ovqatlanish va turizm xizmatlariga bo‘lgan talab oshib, qo‘shimcha daromad manbalari shakllangan.

O‘tkazilgan tahlillar natijasida UzAirwaysning 2018–2023-yillardagi transformatsiya jarayonlari O‘zbekiston turizm raqobatbardoshligiga sezilarli ijobiy ta‘sir ko‘rsatgani aniqlandi. Ushbu davrda yo‘lovchilar soni hamda turizm ulushi barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etib, aviakompaniyaning milliy turizm tizimidagi strategik o‘rni mustahkamlangan. Shu bilan birga, ichki va mintaqaviy aviaqatnovlarning kengayishi hududiy turizm klasterlarida iqtisodiy faollikni oshirib, multiplikativ samarani yuzaga keltirgan.

ESG tahlillari natijalari UzAirways ekologik samaradorlik va ijtimoiy yo‘nalishlarda ijobiy natijalarga erishayotganini ko‘rsatadi, biroq boshqaruv shaffofligi hamda IFRS S1 va IFRS S2 standartlari asosidagi barqarorlik hisobotlari yetarli darajada joriy etilmaganligi aniqlangan. Ushbu holat xalqaro investorlarga axborot taqdim etishdagi shaffoflikni cheklashi mumkin.

Shu sababli, kompaniyada GRI standartlari asosida barqarorlik hisobotlarini joriy etish, CO₂ emissiyalarini hisoblash va monitoring tizimini rivojlantirish hamda raqamli xizmatlarni kengaytirish tavsiya etiladi. Shuningdek, mintaqaviy turizm klasterlari bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali hududiy rivojlanish va turizm oqimini yanada oshirish mumkin.

¹⁰⁶ Manba: IFRS S1, S2 (2023); GRI Standards (2021); IATA Sustainability Report (2023); muallif tahlili.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. ISSB. (2023). IFRS S1: General requirements for disclosure of sustainability-related financial information. IFRS Foundation.
2. ISSB. (2023). IFRS S2: Climate-related disclosures. IFRS Foundation.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5644-son farmoni. (2019). Turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar.
4. Porter, M.E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Free Press.
5. Ritchie, J.R.B., & Crouch, G.I. (2003). The Competitive Destination: A Sustainable Tourism Perspective. CABI Publishing.
6. UNWTO. (2023). Tourism and Aviation: Sustainable Connectivity Framework. United Nations World Tourism Organization.
7. UzAirways JSC. (2023). Annual Report 2023. UzAirways.
8. World Economic Forum. (2024). Travel & Tourism Development Index 2024. WEF.
9. Xalilov, S. A. (2026). IFRS S2 standarti talablari asosida iqlim xavflarining kelajakdagi moliyaviy ta‘sirini baholash va ularni moliyaviy hisobot tizimiga integratsiya qilish modeli. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 6(01), 56–66. https://doi.org/10.55439/AFA/vol6_iss01/1286